

TANBUR CHOLG‘USI VA SATO CHOLG‘USI: TARIXIY ILDIZLARI VA IJROCHILIK AN‘ANALARI



Rasulov Uktamjon Ulmasovich

Yunus Rajabiy nomidagi O‘z.MMSI
“Maqom xonandaligi” kafedra mudiri v.b

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanbur va sato cholg‘ularining tarixiy shakllanishi, o‘zbek musiqa san‘atidagi o‘rni hamda ijrochilik an‘analari tahlil qilinadi. Tanbur – maqom san‘atining asosiy cholg‘usi sifatida, sato esa uning turli ijro an‘analari bilan uzviy bog‘langan holda o‘rganiladi. Maqolada ularning uslubiy xususiyatlari, ustoz-shogird an‘anasida shakllangan ijrochilik maktablari va zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tanbur, sato, maqom, cholg‘u, ustoz-shogird, ijrochilik

Аннотация: В статье рассматривается историческое развитие инструментов танбур и сато, их роль в узбекском музыкальном искусстве и традиции их исполнения. Подробно исследуются танбур как основной инструмент макома и сато, тесно связанный с различными исполнительскими практиками. В статье освещаются стилистические особенности, традиции мастер-ученик и современное развитие этих инструментов.

Ключевые слова: танбур, сато, маком, инструмент, учитель-ученик, исполнительство

Annotation: This article examines the historical development of the tanbur and sato instruments, their role in Uzbek musical art, and their performance traditions. The tanbur, as the primary instrument of maqom, and the sato, closely linked with various performance practices, are studied in detail. The article highlights stylistic features, master-disciple traditions, and the modern development of these instruments.

Keywords: tanbur, sato, maqom, instrument, teacher-student, performance

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari uzoq asrlar davomida shakllanib, turli xil ko‘rinishlarda rivojlangan hamda musiqa san‘atining deyarli barcha yo‘nalishlariga moslashgan. O‘tgan davr olimlari bu jarayonni chuqur o‘rganishga harakat qilganlar. Jumladan, IX asrda yashagan mashhur mutafakkir Abu Nasr al-Farobiy o‘zining “Kitab al-Musiqa al-Kabir” asarida, XII asrda Safiuddin Urmaviy musiqaga bag‘ishlangan risolasida, XIV asrda Abdulqodir Maro‘giy “Jome’ al-Alhon fi-‘ilm al-Musiqiy” nomli risolasida, shuningdek, Ahmadiy o‘zining “Sozlar munozarasi” asarida cholg‘ularning turli jihatlari haqida fikr yuritgan. XV asr olimlari Zaynulobiddin Husayniy “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy”, Abdurahmon Jomiy “Musiqa risolasi” asarlarida, XVI asrda Amuliy hamda XVII asrda Darvesh Ali Changiy qalamiga mansub musiqiy risolalarda cholg‘ularning turlari, ularning nazariy asoslari va tasnifi haqida muhim ma‘lumotlar berilgan.

Adabiyotlar tahlili:

Adabiyotlarda ham cholg‘ular nomi ko‘plab qayd etilgan. Jumladan, o‘z ijodi bilan buyuk ma‘naviy darajaga erishgan mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida musiqa san‘ati va cholg‘ular alohida ehtirom bilan tilga olinadi. XX asrga kelib esa Eykhgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyaev kabi olimlar Sharq xalqlari cholg‘ularini o‘rganishga katta e‘tibor qaratib, ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Tarixiy qo‘lyozmalar, adabiy manbalar hamda musiqiy risolalarda Markaziy Osiyo xalqlari hayotida shakllangan barcha cholg‘u asboblarning nomlari qayd etilgan. Musiqiy risolalarda esa

ularning shakli, tuzilishi, torlar mutanosibligi, tayyorlash mezonlari, ishlatiladigan yog'och turlari kabi texnik tafsilotlar ham batafsil berilgan. Jumladan, torli cholg'ular qatoriga borbad, ud, rud, qobuz, gijjak, navha, nuzha, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor kirgan. Nafasli cholg'ulardan ruxafzo, shammoma, organun, sibizg'i, nay-i anbon, chagona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay ishlatilgan bo'lsa, urma cholg'ulardan daf, doira, nog'ora va safoyl kabi asboblarning keng qo'llangan.

O'zbek musiqa madaniyatining eng qadimiy va yuksak shakllangan qirralaridan biri maqom san'atidir. Bu san'atning rivojida tanbur va sato cholg'ulari alohida o'rin tutadi. Tanbur qadimiy cholg'ulardan biri sifatida o'zbek maqom ijrochiligidagi asrlar davomida markaziy o'rin egallab kelgan. Sato esa o'zining o'ziga xos tovush tembrini, keng imkoniyatlari bilan maqom ijrosiga yangi ma'no bag'ishlagan.

Asrlar osha ota-bobolarimizdan bizning davrimizgacha yetib kelgan qadimiy cholg'ular orasida tanbur alohida o'rin egallaydi. U o'zining sehirli va maftunkor ohangi, qalblarga orom bag'ishlovchi jarangli hamda inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi kuchi bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, tanbur nafaqat o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlarida, balki qo'shni mamlakatlar — Afg'oniston, Eron, Turkiya, Shimoliy Hindiston hamda ayrim boshqa hududlarda ham qadimdan mavjud bo'lgan (Belyaev, 1962). Qadimiy arxeologik topilmalar, miniatyuralardagi tasvirlar va yozma manbalar tanburning eramizdan avvalgi I asrlardan boshlab turli shakllarda keng qo'llanilganini tasdiqlaydi.

Sharq falsafasi va musiqa ilmining buyuk allomasi Abu Nasr Muhammad al-Farobiy o'zining mashhur "Kitab al-Musiqa al-Kabir" ("Musiqaga doir katta kitob") asarida tanbur cholg'usining mavjud turlari haqida ma'lumot bergan. U X asrda "tanbur-i Xurosoniy" va "tanbur-i Bag'dodiy" kabi shakllarini tilga oladi. Keyinchalik, XIV asrda yashab ijod etgan mashhur sozanda va nazariyotchi Xoja Abdulqodir Marog'iy o'z asarlarida tanburning "shirvoniy", "turkiy" turlari hamda "nay-tanbur" deb nomlangan kamonli ko'rinishi mavjud bo'lganini qayd etadi. Mazkur cholg'u keyinchalik sato deb atalib, bugungi kungacha yetib kelgan.

Metodologiya: Mazkur tadqiqotda tarixiy manbalar, maqomshunos olimlarning ilmiy qarashlari, cholg'u ustalarining amaliy tajribalari asos qilib olindi. Qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv va kuzatish metodlari yordamida tanbur va sato cholg'ularining shakllanish jarayoni va ijrochilikdagi o'ziga xosliklari o'rganildi.

Natijalar: Tanbur — o'zbek maqom san'atining asosiy cholg'usi bo'lib, uning ohangdorligi va falsafiy ruhi maqom ijrosida alohida ahamiyat kasb etadi. Tanbur ijrochiligidagi og'ir-bosiqlik, ohangdorlik va teranlik ustuvor hisoblanadi. Sato esa o'zining baland tembrini va keng imkoniyatlari bilan tanburga hamohang tarzda maqom ijrochiligini boyitib keladi.

Sato cholg'uning ovozi, dardlidir. Ijro vaqti sato cholg'usidan taralgan tovush, har bir insonni xayol og'ushiga olib ketadi. Taralayotgan kuy tinglovchiga shunday ta'sir qiladiki, hatto eshituvchi o'z gavda qismini tebranayotganini ba'zan sezmay qoladi. Turg'un Alimatovning chalgan kuylari bunga misol bo'la oladi. Turg'un Alimatov (O'zbekiston xalq artisti) mohir usta tanburchi, dutorchi va sato asbobini dildash, joziba bilan ijro etadigan sozandalarimiz eng yetakchisidir.

Bu cholg'usini ko'pincha O'zbekiston va Tojikistonda takomilashganini bilamiz. Sato asbobi asosan kamon bilan ijro etiladigan cholg'udir, xuddi g'ijjakni ijrosidek, o'tirgan holda chalinadi. Uning dastasiga ichakdan pardalar (ladlar) o'raladi, g'ijjakda esa dasta silliq bo'ladi.

Ushbu cholg'ular ijrochiligi ustoz-shogird an'anasi asosida shakllangan bo'lib, har bir avlod o'zidan keyingilarga san'at sirlarini yetkazib kelgan. Mashhur ustozlar yaratgan ijrochilik maktablari tufayli tanbur va sato bugungi kunda ham o'zbek musiqa san'atining ajralmas qismi sifatida rivojlanib bormoqda.

Tanburning boy ifoda imkoniyatlarini keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan san'at darg'alari — Ota G'iyos Nazirov, Matyoqub Xarratov, Sultonxon Hakim, Shobarot, Qori Siroj, Usta Toir, Ruzimathon, Asatqori Lutfullaev, Ma'rufjon Toshpo'latov, Risqi Rajabiy, Otavali Nuriddinov, Fazliddin Shahobov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullaev, Maqsudxo'ja Yusupov, Yoqub Davidov kabi mashhur sozandalar ijodi xalqimiz xotirasida muhrlanib qolgan. Ularning

faoliyati natijasida turli hududlarda oʻziga xos ijrochilik maktablari shakllandi.

Tanbur, shuningdek, mumtoz adabiyot namoyandalari — Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Xilat, Xurshid, Habibiy va boshqa koʻplab shoirlarning qalbida alohida oʻrin tutgan. Ularning gʻazallari asosida yaratilgan maqom va mumtoz musiqiy yoʻllar, odatda, tanbur joʻrligida ijro etilganini manbalar tasdiqlaydi. Ayniqsa, aruz vaznida yaratilgan gʻazallar asosidagi maqom ashulalarining eng boy qatlamlari tarixan tanbur joʻrligida kuylangan va bu anʼana bugungi kunda ham davom etmoqda.

Tarixiy manbalarga murojaat qilsak, Ota Jalol Nosirov, Mulla Toʻychi Toshmuhammedov, Levi Boboxonov, Sodirxon Hofiz, Shorahim Shoumarov, Shonazar Sohibov, Berkinboy Fayziev, Juroxon Sultanov, Maʼrufxoʻja Bahodirov, Shoqosim Shojalilov, Rasulqori Mamadaliev, Fattohxon Mamadaliev va Orifxon Hotamov singari mashhur xofizlarning ijodida tanbur doimiy joʻrnavez cholgʻu sifatida qoʻllanilgan.

Muhokama. Tanbur va sato cholgʻulari nafaqat musiqiy cholgʻular, balki xalqimizning maʼnaviy dunyoqarashini ifoda etuvchi ramz sifatida qaraladi. Ularning ijrochiligi davomida sabr, intizom, sahna madaniyati va ijodiy erkinlik bir butunlikda namoyon boʻladi.

Bugungi kunda tanbur va sato cholgʻularini oʻrgatish jarayoni nafaqat ustoz-shogird anʼanasida, balki oliy taʼlim muassasalari, konservatoriyalar va sanʼat maktablarida ham davom etmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ularning asarlari yozib olinib, keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Xalqaro miqyosda oʻtkazilayotgan festival va tanlovlar esa tanbur va sato sanʼatining jahon madaniy merosida oʻz oʻrnini topishiga xizmat qilmoqda.

Maʼlumki, har qanday kasb, ilm-maʼrifat yoki sanʼat sohasining rivoji avlodlar zanjirining uzilmasligiga chambarchas bogʻliqdir. Shu maʼnoda, musiqachilik sanʼati ham ustoz-shogird anʼanalari orqali boyib, keyingi avlodlarga oʻtib kelmoqda. XX asrda faoliyat yuritgan taniqli tanburchilar — Risqi Rajabiy, Maʼrufjon Toshpoʻlatov, Jurabek Saydaliev, Maqsudxoʻja Yusupov, Abdumutal Abdullaev, Rasulqori Mamadaliev kabi sozandalar ijodi milliy musiqa xazinamizni yanada boyitdi. Ularning meros qoldirgan asarlari bugungi kunda ham milliy musiqiy oltin xazinamizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa. Oʻzbekistonning boy musiqa merosi xalqimizning asriy madaniy tafakkurini ifodalaydi. Ayniqsa, maqom sanʼatida muhim oʻrin tutgan torli cholgʻular – tanbur va sato – yuksak musiqiy estetikani aks ettiruvchi asboblarning sifatida alohida eʼtiborga loyiqdir. Bu cholgʻular oʻzining oʻziga xos ijro uslublari, konstruksiyasi va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi. Ularning musiqiy ifoda vositasi sifatida shakllanishi, maqom ijrosidagi oʻrni va bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari xalq musiqa madaniyatining barhayotligini koʻrsatishi hech bir musiqa shinavandalari uchun sir emas.

Tanbur va sato cholgʻulari oʻzbek maqom sanʼatining eng muhim vositalaridan biri sifatida asrlar davomida milliy merosimizni boyitib kelmoqda. Ularning ijrochiligi ustoz-shogird anʼanasida shakllangan boʻlib, bugungi kunda zamonaviy taʼlim tizimlari bilan uygʻunlashib, yangi avlodga yetkazilmoqda. Shunday qilib, tanbur va sato cholgʻulari kelajakda ham milliy musiqa madaniyatimizning ajralmas qismi boʻlib qolaveradi.

Foydalangan adabiyot roʻyxati:

1. Ulmasovich, R. U. (2025). Oʻzbek mumtoz musiqasi merosining milliy va umumbashariy qadryatlari. *France-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, 1(3), 8-13.
2. Yuldashev, M. U. (2025). Sharq musiqa madaniyatining pedagogikasi va uning yoshlar tafakkurida aks etishi. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389746>
3. Mamatqulov, M. M. (2025). Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va maʼnaviyatini oshirishda oʻzbek milliy musiqa sanʼatining oʻrni. *Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education (Great Britain)*.
4. Karimova, M. (2025). Shashmaqom cholgʻu qismlarining ijrochiligi. *Modern Science and Research*, 4(3), 1002–1008.

5. Borieva, K. R., & Burieva, K. R. (2022). Маком орындаудағы ән дауыстары: Певческие голоса в исполнении макомов. In XXI ғасырдағы түркі халықтарының ұлттық орындаушылық өнері: зерттеу (р. 244).
6. Yuldasheva, F. D. (2020). Инструмент народа – дутор. Проблемы современной науки и образования, (7 (152)), 106-108.
7. Matyakubov, Sh. B. (2022). Достижения и недостатки макомного образования с использованием современных технологий в традиции наставничества. Проблемы современной науки и образования, (2 (171)), 92-94.